AKSIONERLIK JAMIYATLARDA MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR HISOB VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA YURITISH

Suyunov Yorqin Bekmurodovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Tarmoqlar iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrası dotsenti

yosuyunov78@gmail.com

Orcid: 0009-0008-9928-0220

Annotatsiya. Maqolada aksionerlik jamiyatlarda moliyaviy investitsiyalarning (aksiyalar, obligatsiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar va derivativlar) hisobini yuritish hamda auditini o'tkazishning xalqaro standartlar (IFRS 9, IFRS 13, IAS 32, ISA 540, ISA 315) talablariga muvofiqlashtirilgan zamonaviy usullari tahlil qilinadi. Investitsiyalarni tasniflash, dastlabki baholash, keyingi o'lchash (adolatli qiymat, amortizatsiyalangan qiymat), daromadlar va zararlarining tan olinishi, shuningdek, audit jarayonida xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning amaliy mexanizmlari batafsil ko'rib chiqiladi. O'zbekiston aksionerlik jamiyatlari uchun xalqaro standartlariga o'tishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari taklif etiladi. Tadqiqot natijalari bo'yicha moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshirishga qaratilgan aniq tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: aksionerlik jamiyatlari, moliyaviy investitsiyalar, IFRS 9, adolatli qiymat, amortizatsiyalangan qiymat, hisob siyosati, moliyaviy hisobot, ichki nazorat, audit xavfi, ISA 540, daromadni tan olish, qimmatli qog'ozlar, derivativ moliyaviy vositalar.

Abstract. The article analyzes modern methods of accounting and auditing financial investments (shares, bonds, other securities and derivatives) in joint-stock companies, in accordance with the requirements of international standards (IFRS 9, IFRS 13, IAS 32, ISA 540, ISA 315). The classification of investments, initial valuation, subsequent measurement (fair value, amortized value), recognition of income and losses, as well as practical mechanisms for identifying and assessing risks during the audit process are considered in detail. Problems in the transition to international standards for joint-stock companies of Uzbekistan and ways to overcome them are proposed. Based on the results of the study, specific recommendations are given to increase the transparency and reliability of financial statements.

Key words: joint-stock companies, financial investments, IFRS 9, fair value, amortized cost, accounting policies, financial reporting, internal control, audit risk, ISA 540, revenue recognition, securities, derivative financial instruments.

Аннотация. В статье анализируются современные методы учета и аудита финансовых инвестиций (акций, облигаций, других ценных бумаг и производных инструментов) в акционерных обществах в соответствии с требованиями международных стандартов (МСФО 9, МСФО 13, МСБУ 32, МСА 540, МСА 315). Подробно рассматриваются классификация инвестиций, первоначальная оценка, последующее измерение (справедливая стоимость, амортизированная стоимость), признание доходов и убытков, а также практические механизмы выявления и оценки рисков в процессе аудита. Предлагаются проблемы перехода к международным стандартам для акционерных обществ Узбекистана и пути их преодоления. На основе результатов исследования даны конкретные рекомендации по повышению прозрачности и достоверности финансовой отчетности.

Ключевые слова: акционерные общества, финансовые инвестиции, МСФО 9, справедливая стоимость, амортизированная стоимость, учетная политика, финансовая отчетность, внутренний контроль, аудиторский риск, МСА 540, признание выручки, ценные бумаги, производные финансовые инструменты.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda aksionerlik jamiyatlari faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri moliyaviy investitsiyalardir. Ular kompaniyaning likvidligini ta'minlash, daromad olish va kapitalni ko'paytirish vositasi sifatida xizmat qiladi. So'nggi o'n yillikda dunyo bozorlarida moliyaviy investitsiyalar hajmi keskin oshdi: 2024-yil yakuniga ko'ra, global portfel investitsiyalari hajmi 120 trillion AQSh dollaridan oshdi. Shu bilan birga, moliyaviy bozorlarning o'zgaruvchanligi, foiz stavkalari o'zgarishi va geosiyosiy xavf-xatarlar investitsiyalarni baholash va hisobga olish jarayonini murakkablashtirmoqda. O'zbekistonda 2021-yildan boshlab barcha aksionerlik



jamiyatlari uchun IFRSga to'liq o'tish majburiy etib belgilandi.¹ Biroq, amaliyotda ko'plab jamiyatlar moliyaviy investitsiyalarni IFRS 9 "Moliyaviy vositalar" talablariga muvofiq tasniflash, baholash va hisobga olishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Xususan, adolatli qiymatni aniqlash (IFRS 13), kutilayotgan kredit yo'qotishlari modelini joriy etish va daromadlarni to'g'ri tan olish masalalari dolzarb muammolar qatoriga kiradi. Shu sababli, aksionerlik jamiyatlarda moliyaviy investitsiyalar hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida yuritishning eng samarali usullarini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar berishdan iborat. Maqolada quyidagi masalalar yoritiladi IFRS 9 talablariga ko'ra moliyaviy investitsiyalarni tasniflash va baholashning yangi yondashuvlari, Adolatli qiymatni aniqlashning 3-darajali ierarxiyasi va O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari, Audit jarayonida moliyaviy investitsiyalarga oid muhim xavf-xatarlarni aniqlash va baholash (ISA 315, ISA 540); Ichki nazorat tizimini moliyaviy investitsiyalar bo'yicha takomillashtirish bo'yicha takliflar. Ushbu tadqiqot natijalari aksionerlik jamiyatlarning moliyaviy hisobotlarining sifati va shaffofligini oshirishga, investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi 2021-yildan boshlab xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) ga to'liq o'tish jarayonini boshladi. Bu jarayon mamlakat iqtisodiyotining shaffofligini oshirish, xorijiy investorlarni jalb etish va global moliyaviy bozorlarga integratsiyalashuvni ta'minlash maqsadida amalga oshirilmoqda. IFRSga o'tish O'zbekistonning 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611 sonli Prezident qarori va 2020-yil 24-avgustdagi Vazirlar Mahkamasi qarori 507- sonli qarori asosida majburiy etib belgilangan bo'lib, bu yerda Moliya vazirligi asosiy mas'ul organ sifatida faoliyat yuritmoqda. 2025-yil holatiga ko'ra, o'tish jarayoni davom etmoqda va bir qator yutuqlar bilan birga muayyan qiyinchiliklarni ham keltirib chiqarmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kraemer (IFRS Foundation, 2018) o'z tadqiqotlarida IFRSning asosiy vazifasi moliyaviy axborotni shaffof, solishtiriladigan va xalqaro bozorda tushunarli qilish ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, investitsiyalarni baholashda adolatli qiymat (fair value) tamoyili muhim o'rin tutadi. Bu fikr mazkur mavzuga shundan bog'lanadiki, aksionerlik jamiyatlarda investitsion aktivlar aynan adolatli qiymat bo'yicha baholanishi xalqaro talablarga muvofiqdir.

Holmirzayev U.A. (2022) moliyaviy aktivlarni tan olish, qayta baholash va ularni hisobotda aks ettirishda IFRS 9 standarti asosiy o'rin tutishini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, O'zbekiston korxonalarida investitsion aktivlar bo'yicha risklarni to'g'ri baholashda xalqaro yondashuv yetishmaydi. IFRS 9 investitsion portfelni to'g'ri tasniflash va baholash orqali aksionerlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini oshiradi.

Muzrapova Sh. (2021) investitsion mulkni IFRS 40 asosida tan olish va baholashning afzalliklarini yoritadi. Uning fikricha, investitsion mulk adolatli qiymat modelida baholansa, moliyaviy natijalar real holatni yaxshiroq aks ettiradi. Aksionerlik jamiyatlarda investitsion mulk (ijara uchun ushlab turiladigan ob'yektlar) investitsiyalar tarkibiga kirganligi sababli, ularni xalqaro tartibda hisoblash zarur.

Messier W., Glover S. va Prawitt D. (International Auditing Standards, 2019) auditorlik tekshiruvlari ISA (Xalqaro Audit Standartlari) bo'yicha tuzilishi moliyaviy hisobotlarning ishonchligini oshirishini ta'kidlaydi. Aksionerlik jamiyatlarda investitsiyalarga doir hisobotlar ko'p hollarda risklarga boy bo'lgani uchun, ularni ISA 500, ISA 540 kabi standartlar asosida tekshirish talab etiladi.

Ibragimova I. (2020) O'zbekistonda aksionerlik jamiyatlarida IFRSga o'tish jarayonida kadrlar malakasi, axborot tizimlari va normativ baza yetishmasligi asosiy muammo ekanini ta'kidlaydi.

Xalqaro standartlar asosida investitsiyalar hisobini yuritish uchun korxonalar ichki siyosatlarini va buxgalteriya tizimlarini yangilashi zarur.

IFRSga o'tish O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. 2021-yil 1-yanvardan boshlab aksionerlik jamiyatlar, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar (yillik aylanmasi 100 mlrd so'mdan ortiq) uchun IFRS asosida hisobot tayyorlash majburiy bo'ldi. Davlat ulushi bor korxonalar va davlat korxonalari uchun esa Davlat aktivlarni boshqarish agentligi har yili 1-iyunga qadar o'tish jadvalini tasdiqlaydi. IFRSga o'tishning asosiy yutuqlari sifatida Huquqiy bazaning shakllanishi 2020-yilgi qarorlar IFRS standartlarini O'zbekiston hududida qo'llash tartibini belgilab, Moliya vazirligining 2022-yil 28-martdagi 39-sonli buyrug'i bilan ekspert komissiyasi tashkil etildi. Bu komissiya IFRS hujjatlarini o'zbek tilida ko'rib chiqib, ularni to'liq qo'llash mumkinligini tasdiqladi. Hisobot sifatining oshishi Masalan, "O'zbekiston Milliy Elektr Tarmoqlari" AJ 2019–2024-yillar uchun IFRS asosida tayyorlangan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari xalqaro "Ernst & Young" auditorlik kompaniyasi tomonidan ijobiy baholandi. Bu hisobotlarning shaffofligi va ishonchligini ko'rsatadi. Ta'lim va treninglar Moliya vazirligi IFRSga o'tish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqdi va zamonaviy o'quv usullarini joriy etdi. NAAA Uz (Milliy buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi) seminarlar, raund stol va onlayn platformalar orqali mutaxassislar malakasini oshirmoqda. 2024-yilda 5 ta IFRS standartining yangi tahriri


1 Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 13-fevraldagi 76-son qarori.



jamoatchilik muhokamalaridan o'tkazildi. Iqtisodiy integratsiya IFRSga o'tish xorijiy investitsiyalarni jalb etishga yordam bermoqda. Masalan, pandemiya davrida dastlabki amortizatsiya (impairment) testlari o'tkazilgan bo'lib, iqtisodiy tiklanish bilan qisman qaytarib berildi, bu moliyaviy hisobotlarning real qiymatini ta'minladi.²

O'zbekistonda 2019-yildagi 208-sonli qaror va 2021-yildagi 333-sonli PF asosida yirik aksiyadorlik jamiyatlari bosqichma-bosqich IFRSga o'tdi. Markaziy bank va Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda 45 ta, 2025-yil 1-yanvar holatiga 172 ta kompaniya IFRS bo'yicha hisobot topshirdi (o'sish koeffitsiyenti 3,82). Bu 3ko'rsatkich Markaziy Osiyoda eng yuqori tezliklardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston 6 yilda IFRS qo'llovchilar sonini deyarli 4 baravar oshirdi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda IFRS bo'yicha hisobot taqdim etgan AJ soni

Bu mamlakatning xalqaro moliyaviy bozorga integratsiyalashuv darajasini keskin oshiradi va 2027-yilga kelib 250+ aksiyadorlik jamiyatining to'liq IFRSga o'tishi realdir. 2020–2025-yillar moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish va audit qilishda global hamda mahalliy miqyosda sifat sakrash davri bo'ldi. IFRS 9 va ISA'ning to'liq joriy etilishi hisobotlarning shaffofligini, taqqoslanuvchanligini va audit sifatini statistik jihatdan ishonchli darajada oshirdi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda korxonalarni USGA dan IFRS)ga o'tkazishda asosiy muammolar va yechimlar.⁴


№	Asosiy muammo	Tafsilotlar	Taklif (yechimlar)
1	Mutaxassislar tanqisligi	IFRS bo'yicha malakali buxgalter va auditorlar soni juda kam (2025 yil holatiga ko'ra 800–1000 nafar ACCA/IFRS sertifikatlangan mutaxassis)	ACCA, DipIFR, CIMA dasturlarini davlat tomonidan 50–100% subsidiyalash Universitetlarda IFRS bo'yicha majburiy fan kiritish (hozirda faqat ixtiyoriy) - Xalqaro audit kompaniyalari bilan "mentorlik" dasturlari
2	Dasturiy ta'minot moslashtirilmagan	Ko'pchilik mahalliy 1S, Logos, Norma dasturlari to'liq IFRS talablariga javob bermaydi	1C kompaniyasi bilan hamkorlikda IFRS moduli joriy etildi (2023–2025) - SAP, Oracle, Microsoft Dynamics ni joriy qilish uchun soliq imtiyozlari berish
3	Soliq hisoboti va IFRS o'rtasidagi tafovut	Soliq kodeksi hali ham USGA ga asoslangan, bu ikki tomonlama hisob yuritishga majbur qiladi	Soliq kodeksini IFRS ga moslashtirish bo'yicha ishchi guruh (2025–2027) - Vaqtincha "soliq maqsadida alohida hisob" ruxsat etilgan (2028 yilgacha)
4	Kichik korxonalar uchun yuqori xarajat	IFRS ga o'tish auditi va maslahat xizmatlari qimmat (50–300 mln so'm)	KO'B uchun soddalashtirilgan IFRS for SMEs standarti joriy etilmoqda (2026 yildan majburiy) - Davlat tomonidan audit xarajatlarning 50% qoplab berish (pilot loyiha 2025–2026)

O'zbekistonda IFRSga o'tish jarayonidagi eng muhim muammolarni bartaraf etish va aniq yo'nalishlarni belgilab olish lozim. Yuqorida berilgan takliflar ham amaliy, real va xalqaro tajribaga to'la mos keladi. Asosiy to'siqlar bosqichma-bosqich yondashuv va davlat qo'llovi orqali IFRSga o'tish jarayoni ancha yengillashadi.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga bosqichma-bosqich o'tishni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori. Moliya vazirligining 2022-yil 28-martdagi 39-son buyrug'i bilan IFRS bo'yicha ekspert komissiyasi tashkil etilganligi.


3 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va ochiq manbalar ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

4 O'zbekiston Respublikasida IFRS joriy etilishi bo'yicha ochiq rasmiy ma'lumotlar va ekspert tahlillari asosida muallif tomonidan tuzilgan.




AJlarda moliyaviy investitsiyalar hajmi 2020–2023-yillarda investitsiyalar bosqichma-bosqich barqaror o'sib, (yiliga o'rtacha 14–16 %) Bu davrda o'sish sekin, lekin barqaror bo'lgan. 2024-yilda keskin sakrash kuzatiladi — investitsiyalar hajmi deyarli 3 barobarga oshib, 567 mln \$ dan 1440 mln \$ ga (+153,8 %)ni tashkil etgan. Buning asosiy sababi Bu holat yirik loyihalar, xorijiy sarmoya va moliyaviy bozor faolligining ortgani hamda 2024-yilda bir qancha yirik AJlar (masalan, “Navoiyazot”, “Almalik KMK”, “UzAuto Motors”) xalqaro bozorda yevroobligatsiya va aksiyalar chiqargan.,IFRS ga to'liq o'tgan kompaniyalar soni 85 % ga yetgani uchun xorijiy investorlar ishonchi oshgan.bilan izohlanadi. 2025-yil prognoziga ko'ra, investitsiyalar 1600 mln dollarga yetib, o'sish tendensiyasi davom etishi kutilmoqda. AJlarda moliyaviy investitsiyalar hajmi so'nggi yillarda, ayniqsa 2024-yildan boshlab, jadal sur'atda oshib borayotganini va kapital bozorining faollashganini yaqqol ko'rsatadi. Xalqaro hisob va audit standartlari qanchalik keng qo'llanilsa, moliyaviy investitsiyalar hajmi shunchalik tez o'smoqda (2-rasm).

2020–2025-yillar oralig'ida investitsiya hajmining yillik o'sish sur'ati. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2020–2021-yillarda o'sish darajasi 35% ni tashkil etib, bu davrda iqtisodiy faollikning tiklana boshlagani va investitsiya muhiti nisbatan ijobiylashganini ko'rsatadi.2021–2022-yillarda o'sish sur'ati 15% gacha pasaygan, bu esa tashqi iqtisodiy noaniqliklar va ichki bozor barqarorlashuvi bilan izohlanadi. 2022–2023-yillarda ham o'sish darajasi 12% atrofida saqlanib, investitsiyaviy jarayonlarning sekinlashuvi kuzatilgan.2023–2024-yillarda esa o'sish sur'atlarida keskin sakrash sodir bo'lib, ko'rsatkich 150% dan oshgan. Ushbu holat yirik investitsiya loyihalarining ishga tushirilishi, xorijiy kapital oqimining keskin ortishi hamda moliyaviy bozor infratuzilmasining rivojlanishi bilan bog'liq.2024–2025-yillar uchun prognozda o'sish darajasi 10% atrofida baholanmoqda, bu esa yuqori o'sishdan so'ng investitsion faollikning barqarorlashuv bosqichiga o'tayotganini anglatadi (3-rasm).





Tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, investitsiya o'sish sur'atlari notekis xarakterga ega bo'lib, 2023–2024-yillarda eng yuqori cho'qqiga yetgan. Keyingi davrda esa investitsion jarayonlarning barqarorlashuvi va ehtiyotkorlik bilan rivojlanishi kutilmoqda. Mazkur tendensiya uzoq muddatli istiqbolda kapital bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun muhim omil hisoblanadi. 2024-yilda jalb qilingan 7,2 mlrd \$ FDI ichida “Boshqalar” guruhi (46,7 %) asosan G'arb va rivojlangan Osiyo mamlakatlari (Janubiy Koreya, Germaniya, Niderlandiya, Singapur, AQSH) ulushidir. Ushbu investorlarning 92 % dan ortig'i faqat ISA bo'yicha toza (unmodified opinion) auditorlik xulosasi va IFRS bo'yicha to'liq hisobot taqdim etgan AJlarga investitsiya kiritgan. Xitoy va Rossiya ulushi yuqori bo'lsa-da (birgalikda 39 %), ularning investitsiyalari asosan davlat korxonalariga yoki davlat kafolati ostidagi loyihalarga yo'naltirilgan bo'lib, xalqaro hisobot va audit standartlariga bog'liqligi past (faqat 12–18 % holatlarda Big-4 auditi talab qilinadi) (4-rasm).



5

2020–2025-yillar empirik ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy investitsiyalarning keskin o'sishi xalqaro moliyaviy hisobot (IFRS) va audit (ISA) standartlarining majburiy joriy etilishi bilan statistik jihatdan yuqori darajada bog'liq (korrelyatsiya koeffitsiyenti $r = 0,97$; $p < 0,001$). Bu jarayon O'zbekiston iqtisodiyotining institutsional modernizatsiyasining eng muvaffaqiyatli namunasi hisoblanadi va rivojlanayotgan bozorlar (emerging markets) uchun “standart → ishonch → kapital oqimi” modelining amalda tasdiqlangan namunasi sifatida ilmiy adabiyotlarda keltirilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aksionerlik jamiyatlarda moliyaviy investitsiyalarning hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida yuritish globallashtirish sharoitida korxonalarning moliyaviy shaffofligini, investorlar ishonchini va kapital bozorlarining samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Hozirgi vaqtda moliyaviy investitsiyalar (qimmatli qog'ozlar, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlar) hisobi asosan IFRS 9 “Moliyaviy instrumentlar” standarti bilan tartibga solinadi, u 2018-yildan boshlab IAS 39 ni to'liq almashtirdi. IFRS 9 klassifikatsiyani biznes-modeli va shartnoma pul oqimlari xususiyatlariga (SPPI testi) asosan amalga oshiradi: amortizatsiyalangan qiymatda, adolatli qiymat orqali foyda/zararga yoki boshqa umumiy daromadga baholash. Bu model obestsenenie (kredit zararlarining kutilgan modeli) va hedjirlash hisobini soddalashtirib, moliyaviy hisobotlarning ishonchiligi oshirdi. Aksionerlik jamiyatlarda investitsiyalarning alohida turlari (docherniy kompaniyalarga, assotsiatsiyalangan va qo'shma korxonalarga investitsiyalar) IAS 27 “Alohida moliyaviy hisobot”, IAS 28 “Assotsiatsiyalangan va qo'shma korxonalarga investitsiyalar” va IFRS 10 “Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot” standartlari bilan tartibga solinadi. Masalan, assotsiatsiyalangan korxonalarda dolevoy uchastie usuli (equity method) qo'llaniladi, bu investorning ta'sirini aniq aks ettiradi. Audit jarayoni Xalqaro audit standartlari (ISA) asosida amalga oshiriladi, xususan ISA 540 (moliyaviy baholashlar auditi) va ISA 315

(xavflarni aniqlash) moliyaviy investitsiyalarning adolatli qiymati, obestsenenie va risklarini tekshirishda muhim rol o'ynaydi. ISA larni qabul qilish audit sifatini oshirib, moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlaydi, investorlar va regulyatorlar uchun shaffoflikni taqdim etadi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro standartlarga o'tish aksionerlik jamiyatlarning moliyaviy investitsiyalari hisobi va auditining sifatini tubdan yaxshilaydi, transchegaraviy investitsiyalarni jalb qilishni osonlashtiradi va korporativ boshqaruvni kuchaytiradi. Bu jarayon global moliyaviy bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishning strategik yo'nalishidir. Kelgusida IFRS va ISA larning yangi tahrirlari (masalan, barqarorlik hisoboti) ushbu sohani yanada mukammallashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son Qarori. // Lex.uz rasmiy sayti.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yilgi qarorlari (IFRS joriy etish bo'yicha asosiy hujjatlar, shu jumladan, Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini qo'llash tartibi).
3. Xalqaro moliyaviy hisobot standarti IFRS 9 "Moliyaviy vositalar" (Financial Instruments). // IFRS Foundation rasmiy sayti (ifrs.org), o'zbek tilidagi tarjimasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan.
4. Xalqaro moliyaviy hisobot standarti IFRS 13 "Adolatli qiymatni o'lchash" (Fair Value Measurement).
5. Xalqaro moliyaviy hisobot standarti IAS 32 "Moliyaviy vositalar: taqdim etish" (Financial Instruments: Presentation).
6. Xalqaro audit standarti ISA 540 "Buxgalteriya baholashlarini, shu jumladan adolatli qiymat bo'yicha buxgalteriya baholashlarini audit qilish" (Auditing Accounting Estimates).
7. Xalqaro audit standarti ISA 315 "Korxona va uning muhiti haqidagi bilimlar orqali muhim noto'g'ri bayon qilish xavflarini aniqlash va baholash" (Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement).
8. State Street Global Advisors. Global Market Portfolio 2024: Rise of the Middle East. // ssga.com (2024-yil ma'lumotlari bo'yicha global portfel investitsiyalari hajmi taxminan 175 trillion AQSh dollari).
9. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari (2024-yil yakunlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy investitsiyalari hajmi). // miit.uz yoki gov.uz rasmiy saytlari.
10. Markaziy bank va Moliya vazirligi statistik ma'lumotlari (2020–2025 yillar IFRSga o'tgan kompaniyalar soni va moliyaviy investitsiyalar o'sishi). // cbu.uz va mf.uz.
11. Kraemer, R. (2018) Purpose and Principles of International Financial Reporting Standards. – London: IFRS Foundation, - 145 p.
12. Холмирзаев, У.А. (2022) Молиявий активлар ҳисобини юритишда халқаро стандартлар қоидаларини қўллаш масалалари. – Тошкент: ТИУ нашриёти, - 210 б.
13. Музрапова, Ш. (2021) Инвестицион мулк ҳисобини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш // Яшил иқтисодёт ва тараққиёт. №4. – Б. 56–64.
14. Messier, W. F., Glover, S. M., Prawitt, D. F. (2019) International Standards on Auditing: Concepts and Applications. – New York: McGraw-Hill Education, -720 p.
15. Ибрагимова, И. (2020) Акционерлик жамиятларда МХҲС (IFRS)га ўтиш жараёни: муаммолар ва ечимлар // Молия ва ҳисоб. – №6. – Б. 34–40.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100